

**Fuqarolik jamiyatida alohida o'rin tutgan meros masalalari va
merosxo'rlarning huquq va majburiyatlari**

*Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya (faoliyat
turlari bo'yicha) yo'nalishi 2-bosqich bosqich talabasi*

Qulmurodova Zuhra

Anotatsiya : *Hozirgi kunda meros masalasi eng dolzarb mavzulardan biri sifatida qaraladi va bu maqolada ana shu masala bo'yicha yuzaga keladigan holatlar merosxo'rlarning huquq va majburiyatlari ularning taqsimlanishi va boshqa masalalariga to'xtalib o'tilgan.*

Annotation: *Nowadays, the issue of inheritance is considered as one of the most urgent topics, and this article deals with the cases that arise on this issue, the rights and obligations of the heirs, their distribution and other issues.*

Kalit so'zlar : *meros huquqi ,meros qoldiruvchi, vasiyatnoma bo'yicha vorislik , qonuniy vorislik , merosdan voz kechish , egasiz qolgan mol mulk , merosning ochilishi, taqsimlanishi, merosxo'rlar , huquq va majburiyatlar ularni keltirib chiqaruvchi asoslar.*

Key words: *right of inheritance, legatee, succession by will, legal succession, relinquishment of inheritance, dispossessed property, opening, distribution of inheritance, heirs, rights and obligations, their causes.*

Kirish : *Hammaga ayonki inson umri mobaynida boshqa shaxslar bilan turli xil munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlar, albatta, insonning erkin irodasi bilan vujudga keladi. Munosabatda bo'lgan har bir shaxs muayyan bir huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Bu turdagi huquq va majburiyat, qoida tariqasida, inson vafot etgandan keyin ham o'z ahamiyatini saqlab qolishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, insonning vafot etishi har doim ham ushbu huquq va majburiyatlarning bekor bo'lishiga olib kelmaydi. Misol uchun,*

banklarga qo'yilgan mablag', uni qo'ygan shaxs vafot etgandan keyin ham bank omonatni berish majburiyatidan ozod bo'lmaydi. Majburiyat davom etaveradi, biroq talab qilish huquqi boshqa shaxslarga o'tadi. Fuqaro vafot etgandan keyin ham uning barcha huquqi va majburiyatlari o'zkuchini saqlab qolmaydi, ayrimlari bekor bo'ladi

Meros huquqi bu vafot etgan shaxsdan qolgan mol-mulk uning merosxo'rlariga (farzandlariga, ayoliga, aka-ukalariga, ota-onasiga) yoki boshqa shaxslarga shuningdek bazi hollarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va davlat organlariga egalik qilish uchun o'tishi hisoblanadi. Meros huquqiga oid normalar vafot etgan kishidan qoladigan mol-mulkka egalik qilish huquqi kimlarda vujudga kelishi va kimlar birinchi navbatda vorislik qilishlari mumkinligini tartibga soladi. Meros odatda ikki xil vasiyatnoma bo'yicha va qonuniy vorislarga o'tadi.

Biroq O'zbekistonda meros, vasiyatnoma qoldirish hali u darajada rivojlanib ulgurmagan balki shu sababli meros masalasi bo'yicha ko'plab nizolar va chalkashliklar kelib chiqmoqda buning oldini olish uchun birinchi navbatda insonlarning meros va vasiyatnoma haqidagi dunyo qarash va bilimlarini oshirish lozim. Yaqin qarindoshlar orasida mol-mulk bilan bog'liq nizolar uchrayotgani, oqibatda aka-ukalarning bir-biridan yuz o'girishi kabi holatlar sodir bo'layotgani sir emas. Buning asosiy sababi – odamlarimizning meros masalasiga jiddiy qaramasligida.

Misol uchun, ota vafot etib, undan farzandlarga uy-joy meros bo'lib qoladi. Lekin bu mulk bo'yicha vasiyat qoldirilmagani sababli farzandlar o'rtasida o'zaro nizo chiqadi. Ota bu nizoning oldini olish uchun hayotligida vorislik huquqiga oid amaliyotlarni amalga oshirganida aka-uka yoki opa-singillar o'rtasiga nifoq tushmasdi.

– Meros bilan bog‘liq nizolar asosan bir oila a‘zosi bo‘lgan vorislar o‘rtasida yuzaga keladi, – deydi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rinbosari Xolmo‘min Yodgorov.

Fuqarolik huquqida meros masalalari bo'yicha birinchi navbatda merosxo'rlarga qonunga ko'ra merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma beriladi guvohnoma berish meros ochilgan joydagi notarius tomonidan merosxo'rlarning iltimosiga ko'ra merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma berilishi shart guvohnoma olingandan keyingina merosxo'rlar mol mulkni olishlari mumkin bo'ladi. Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma meros ochilgan kundan e'tiboran olti oy o'tgach beriladi meros ochilgan kishining vafot etgan kuni yoki sudning vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi qarori kuchga kirgan kun hisoblanadi . Ammo bazi hollarda guvohnoma merosxo'rlarning o'zaro kelishuvi asosida iltimosiga jo'ra olti oydan oldinroq ham berilishi mumkin misol uchun merosxo'rlardan biri chet davlatga chiqishi zarur bo'lsa yoki boshqa moddiy sabablarga ko'ra .

Undan keyingi masala meros huquqining subyektlari Meros qoldiruvchi bu – faqat jismoniy shaxs bo‘la oladi. Merosxo‘r bu – meros ochilgan paytda hayot bo‘lgan fuqarolar hamda meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo‘lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug‘ilgan bolalari vasiyat va qonun bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishlari mumkin. Vasiyat bo‘yicha har qanday shaxs qarindoshlik aloqasi va darajasidan qat‘iy nazar, qonun bo‘yicha esa marhumning oila a‘zolari, qarindoshlari hamda qaramog‘ida bo‘lgan shaxslar merosxo‘r bo‘lishi mumkin. Qonun bo‘yicha vorislikda farzandlikka oluvchilar ham farzandlikka olinganlar ham farzandlar va ota-onalar kabi bir xil huquqlarga ega bo‘ladilar. Farzandlikka olingan bolalar, – deyiladi Oila kodeksining 165-moddasida, –barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchilarning o‘z bolalariga tenglashtiriladi. Farzandlikka olinganlar va ularning ota-anasi (ota-ona qarindoshlari) bir-birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarini yo‘qotadilar hamda o‘zaro majburiyatlardan ozod bo‘ladilar. Meros ochilgan

paytda tuzilib bo'lgan yuridik shaxslar , shuningdek davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish boshqarish organlari ham vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin.

Muammoli vaziyat :

Meros masalasi bo'yicha hozirda juda ko'plab muammoli vaziyatlar vujudga kelmoqda bulardan bittasi sifatida quyidagi vaziyatni olishimiz mumkin. Oilada uchta o'g'il bitta qiz qiz turmushga chiqib ketgan ikkita katta o'g'il boshqa joydan uy joy qilib chiqib ketgan ota- ona vafotidan keyin uy joyda kenja farzand farzand yashay boshlagan. Ammo merosxo'rlardan hech biri vasiyatnoma bo'yicha tegishli idoralarga murojat qilmagan va mazkur uy joyga nisbatan meros huquqi ochilmay qolib ketgan . Kenja o'g'ilning yolg'iz farzandining o'limidan keyin yolg'iz qolgan er- xotin singlisini o'g'lini olib kelib yashay boshlaydi. Jiyan kutilmaganda uy joyning hujjatlari bilan qiziqib boshlaydi va meros ochiladi jiyan onasi vafot etganligi uning farzandi sifatida davlat notarial idorasiga meros bo'yicha guvohnoma berishini so'rab murojat qiladi. Murojatida o'zidan boshqa ham merosxo'rlar borligini ko'rsatadi . Shunda barcha merosxo'rlar bu masaladan ogohlantiriladi . Ammo qolgan merosxo'rlar ya'ni tog'alar jiyanning foydasiga merosdagi o'zlarining ulushlaridan voz kechadi . Shunda jiyanga meros to'g'risida guvohnoma qonuniy tarzda beriladi . Oradan ancha vaqt o'tib jiyan uyni buzub qaytadan quradi va kichkina masala bo'yicha orasida janjal chiqib tog'alar bu uy bizga ota onamizdan qolgan meros ku deb uni qaytarib olish bo'yicha notariusga murojat qilshadi ammo ularning davo arizasi qanoatlantirilmaydi bu masala fuqarolik kodeksining 1147- moddasida merosdan voz kechish huquqi keltirib o'tilgan unga ko'ra, merosxo'r meros ochilgan kundan e'tiboran istalgan vaqtda merosdan voz kechishga haqli. Merosdan voz kechish merosxo'r tomonidan meros ochilgan joydagi notariusga ariza berish orqali amalga oshiriladi. Agar ishonchnomada vakil orqali merosdan voz kechish vakolati maxsus nazarda tutilgan bo'lsa, merosdan shu tarzda voz kechilishi mumkin. Merosdan voz kechish keyinchalik bekor qilinishi yoki qaytarib olinishi mumkin emas. Meros

masalasi bo'yicha yana shunga o'xshash va boshqacha kelishmovchiliklar tez tez uchrab turadi merosxo'rlar merosdagi ulushidan ko'p hollarda shunday vos kechadi ammo o'zi qiyint ahvolga tushib qolsa qaytarib olishga harakat qiladi biroq fuqarolik huquqi bo'yicha bunga yo'l qo'yilmaydi .

Shuni ta'kidlab o'tish joizki meros vafot etgan shaxsdan qolgan mol- mulk ba'zi hollarda egasiz deb ham e'lon qilinishi mumkin qachonchki, agar hech qanday merosxo'rlar bo'lmasa yoxud merosxo'rlardan hech qaysisi vorislik huquqiga ega bo'lmasa yoxud ularning hammasi merosdan voz kechgan bo'lsa, meros mol-mulk egasiz deb hisoblanadi. Meros mol-mulk meros ochilgan joydagi hokimlik yoki mahalla yig'inining arizasi bo'yicha meros ochilgan kundan e'tiboran uch yil o'tganidan keyin sudning qarori asosida egasiz deb topiladi. Egasiz mol-mulk u turgan joydagi mahalla yig'inining mulkiga o'tadi, bu organ mol-mulkdan voz kechgan taqdirda, davlat mulkiga o'tadi. Shunday vaziyatlar bo'lishi mumkin fuqaro tiriklik vaqtida o'zining mol mulkini farzandlariga yoki boshqa qonuniy merosxo'rlarning hech biriga qoldirnaslik , ularni meros olish huquqidan mahrum etishligi mumkin shunday hollarda mol mulk egasiz deb e'tirof etilishi mumkin. Yoki shaxslarning o'zlari o'ziga qoldirilgan merosdan o'z xohishi bilan voz kechishi , meros qoldiruvchi shaxsning hech kimi bo'lmasligi farzandi , turmush o'rtog'i shunday hollarda ham mol mulk egasiz deb e'tirof etilishiga asos bo'ladi .

Ko'plab qonun hujjatlarida meros masalasiga doir ma'lumot kiritilayapti ular yangilanayapti o'zgaryapati shulardan biri sifatida 11.10.2018 yildagi O'RQ–497-son qonun bilan Uy-joy kodeksining 32-moddasiga qo'shimcha kiritilganliginiligini ko'rsatishimiz mumkin.

Norma'ning yozishicha, u quyidagicha bayon etilgan: uy-joyni xususiylashtirishga rozilik bergan shaxsning turar joydan foydalanish huquqi uning vafotidan keyin ochiladigan meros tarkibiga kirmaydi. Ushbu norma kimlarga taalluqli? Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish jarayonida ikki toifadagi sub'yektlar ishtirok etadi:

- mulkdorlar – uy-joyni shaxsan sotib olgan yoxud uy-joy bepul berilgan hamda mulk huquqiga doir davlat orderi ularning nomiga rasmiylashtirilgan fuqarolar;

- xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar – xususiylashtirish paytida uy-joyda propiska qilingan, xususiylashtirish uchun arizada ko‘rsatilgan va unga «roziman» deya qayd etib imzo chekkan barchavoyaga yetgan fuqarolar. Keyingilari faqat xususiylashtirilgan turar joy maydonidan foydalanish huquqini saqlab qoladilar, biroq unga bo‘lgan mulk huquqini olmaydilar. Biroq Qonun xususiylashtirilgan uy-joyni sotish, ayirboshlash, hadya qilish yoki ijaraga, arendaga berish uchun uni xususiylashtirishga rozilik bergan barcha shaxslarning roziligini talab qiladi. Umumiy qoidaga ko‘ra bu – umumiy mulk alomati. Ehtimol, shu sababga ko‘ra Oliy sud Plenumi xususiylashtirishga rozilik bergan barcha shaxslarni xususiylashtirilgan turar joyning birgalikdagi mulkdorlari, turar joyning o‘zini esa ularning umumiy mulki deya e’tirof etar.

Yetarlicha ziddiyatli vaziyat yuzaga kelib, u qonun ijodkorlarini Uy-joy kodeksining 32-moddasiga aniqlik kiritishga majbur qildi. Yangilik mulkdorlarga daxl etmaydi – mulk huquqi ilgarigidek umumiy tartibda meros qilib olinishi mumkin. Shu sababli, agar kvartira (uy) ulushli mulk huquqida bir nechta voyaga yetgan oila a’zolari nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa, ularning har biri teng darajada o‘z ulushini meros qilib berishi mumkin.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, meros orqali vafot etgan shaxsdan qoladigan mol-mulk uning merosxo‘rlariga o‘tishi orqali egalik qilish huquqi ham o‘sha shaxslarga o‘tishini merosning asosiy mezoni sifatida ko‘rishimiz kerakligini anglatadi. Meros masalasi bo‘yicha fuqarolik qonunchiligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash joizdir. Ushbu maqolada meros huquqi tushunchasiga turli mutaxassislar tomonidan berilgan turli ta’riflar, merosning qonun va vasiyatnoma bo‘yicha o‘tishi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tildi.

To'plangan ma'lumotlar fikrlarga tayangan holda, hozirgi davrda meros masalalarini tartibga soluvchi universal hujjat ishlab chiqish kerak degan xulosadaman. Meros masalasi fuqarolik masalalari doirasiga kirganligi bois bu masalalar bo'yicha chet mamlakatlarning tajribasini o'rganish qiyint shu sabab ham meros, vorislik masalalari bo'yicha alohida qonun hujjatlari ishlab chiqsa arzirli. Chunki bu masalalar juda chalkash va mujmal nizolar ham talaygina. Maqoladan xulosa shuki fuqarolarda meros huquqi bo'yicha kelib chiqadigan savol va tushunmovchiliklarga qisman bo'lsada javob olishiga ko'maklashish va meros masalalarini ochiqashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

Fuqarolik huquqi: darslik: 4 jildda (1-jild) / OTV. tahririda E. A. Suxanov. - M: Nizom, 2019 Yil

K.B.Kushbakov. "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" Fanidan o'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2018.

https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/vorislik_va_meros_huquqlari_-_goyat_dolzarb_masalalar

<https://yurxizmat.uz/oz/document/549>

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi II qism

O'zbekiston Respublikasi Natariat to'g'risidagi qonun

https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/vorislik_va_meros_huquqlari_-_goyat_dolzarb_masalalar